

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Каримов</b> Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
<b>D.E.Normatova</b> Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
<b>B.E.Xusanov</b> Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
<b>N.M.Axmadiyev</b> Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
<b>N.N.Teshayev</b> Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....	223
<b>K.G’.Kamolova</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....	227
<b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b> Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
<b>K.U.Sharipova</b> Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
<b>S.A.Xayrullayev</b> Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
<b>O’.X.Rajabov</b> Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....	248
<b>Sh.T.Abbosova</b> Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....	251
	SIYOSAT
<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
<b>A.A.Abdilxamedov</b> Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
<b>B.Y.Paluaniyazov</b> Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
<b>U.M.Kuranov</b> Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....	270
	ТАРИХ
<b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b> O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
<b>M.X.Исамиддинов</b> Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
<b>X.Raxmatillayev</b> Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....	314
<b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b> Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....	318
<b>N.S.Abdullayeva</b> Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
<b>S.B.Xakimova</b> “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
<b>Ш.Т.Темиров</b> Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие .....	332

## ESTETIK TARBIYA MOHIYATINING FALSAFIY TAHLILI

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СУЩНОСТИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

## PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE ESSENCE OF AESTHETIC EDUCATION

Xusanov Baxodir Ergashevich<sup>1</sup><sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.n.**Annotatsiya**

Maqolada barcha davrlarda ijtimoiy-ma'naviy hayotning muhim qismi bo'lgan estetik tarbiya, uning inson kamolidagi o'rni va roli, o'z davri yetuk mutafakkirlarining estetik tarbiya va uning ahamiyati haqidagi qarashlari, estetik tarbiyaning mohiyati va maqsadiga oid turlicha yondoshuvlar falsafiy tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье философски анализируются эстетическое воспитание, которое является важной частью общественно-духовной жизни во все периоды, его место и роль в развитии человека, взгляды зрелых мыслителей своего времени на эстетическое воспитание и его значение, сущность и цель эстетического воспитания. образование.

**Abstract**

The article philosophically analyzes aesthetic education, which is an important part of socio-spiritual life in all periods, its place and role in human development, the views of mature thinkers of their time on aesthetic education and its importance, the essence and purpose of aesthetic education.

**Kalit so'zlar:** estetik tarbiya, ekologik estetika, texnika estetikasi (dizayn), go'zallik, muhabbat, yuksak did, shaxs axloqiy tarbiyasi, globallashuv shiddati, Harakatlar strategiyasi, Baramollilik.

**Ключевые слова:** эстетическое воспитание, экологическая эстетика, техническая эстетика (дизайн), красота, любовь, высокий вкус, нравственное воспитание личности, интенсивность глобализации, стратегия действий, совершенство.

**Key words:** aesthetic education, ecological aesthetics, technical aesthetics (design), beauty, love, high taste, personal moral education, intensity of globalization, strategy of actions, perfection.

**KIRISH**

Tarbiya jamiyat va inson kamoli hamda baxt-saodatida hal qiluvchi omil sifatida barcha sohalarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ular orasida estetik tarbiya boshqa shakllaridan kam bo'lmagan ta'sir doirasiga egaki, uni ilmiy-falsafiy tahlil etish barcha zamon mutafakkirlarining diqqatini o'ziga torta olgan.

Estetik tarbiya uzluksiz jarayon. Uning ibtidosi oiladan boshlanadi va maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limda mustahkamlanadi. Bu jarayonning mustahkamligi esa tarbiyachi-pedagog, o'qituvchi-murabbiylar bilan bir qatorda davlat xizmatchilarining ham asosiy vazifasidir. Bu vazifalarning to'laqonli ijrosi oilada - ota va onaning, ta'lim muassasasida – pedagogning, davlat xizmatlari sohasida – rahbarning estetik tarbiyadagi shaxsiy namunasi asosida ta'minlanadi. Shunday ekan, jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida estetik tarbiyani rivojlantirishning milliy asoslari fan, ta'lim, madaniyat o'rtasidagi mustahkam aloqadorlikka bevosita bog'liq bo'ladi.

“...estetik tarbiya insonni inson qiladigan hodisa, - deb ta'kidlaydi Abdulla Sher - Estetik tarbiyaning maqsadi, muayyan shaxsning estetik qadriyatlarga munosabatini shakllantirishdan, unda ijodiy fikrlash, estetik mushohada qilish malakasini yuksaltirishdan iborat. Estetik tarbiya doimo axloqlik bilan “kelishib” faoliyat olib boradi, u tufayli odamlar o'zaro munosabatlarning insoniy va go'zal bo'lishiga erishadilar, nafasat o'zini namoyon qiladigan san'at va boshqa ijtimoiy-ma'naviy sohalardan zavqlana bilish qobiliyatini kamolga yetkazadilar. Bunday jarayonlarning hammasi ko'pdan ko'p vositalar orqali amalga oshadi. [1]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Estetik tarbiyaga doir qarashlar va g'oyalari rivoji uzoq tarixga ega. Dastlab ko'hna Sharq, so'ngra Qadimgi Yunon, keyinroq O'rta asrlar Sharq mutafakkirlarining merosida nafasat, go'zallik va tarbiya uyg'unligi masalalari estetik tarbiya haqidagi tafakkurni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-ma'rifiy manba vazifasini o'tadi.

Estetik tarbiya mohiyatan shaxs badiiy tafakkuri va ijodkorlik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma'naviy jarayon hisoblanadi. U shaxsni shakllanishi, rivojlanishi va faoliyati davomida yonma-yon yuradi. Sababi, inson estetik tarbiya orqali voqelikdagi go'zallikni idrok etadi, ulug'vorlikni his qiladi, hunuklik va tubanlikka munosabat bildiradi. Tarbiyaning birorta shakli bunday imkoniyat va qamrovga ega emas, deyish uchun yetarli asoslar mavjud. Masalan, bugungi kunga kelib estetika fanining tadqiqot sohasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda, jumladan, sog'liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn) kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Xalqimiz ma'naviy merosida estetik tarbiya sohasiga tegishli masalalar ulug'lar e'tiboridan chetda qolmagan. Hatto, jahon ilmiy jamoatchiligining e'tirofiga sazovor bo'lgan ajdodlarimiz nafosat tarbiyasiga bag'ishlab maxsus asarlar yozgan. Jumladan, "Musiqqa haqida katta kitob" (Abu Nasr al-Forobiy), "She'r haqida risola" (Ibn Sino), "Majolis un-nafois" (Alisher Navoiy) va boshqa asarlar ta'sirida jahon estetik tafakkuri yangilandi va taraqqiy etdi.

Inson ma'naviy olamni asosan uch soha orqali o'zlashtiradi aql-idrok, iroda-ixtiyor va his-tuyg'u (ingliz faylasufi Karl Leybnits nazariyasi). Bu sohalar insonning falsafiy, mantiqiy, axloqiy, estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, iroda-ixtiyorni o'rganish – axloqshunoslik (etika)ning, aql-idrokni o'rganish - mantiq (logika)ning, hissiyotni o'rganish esa nafosatshunoslik (estetika)ning zimmasidadir.

Bu uchchala soha azaldan falsafada o'z o'rinlariga ega bo'lib kelgan. Xususan, estetika insonning ma'naviy olamini nafis tuyg'ular bilan boyitib borishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqimiz ma'naviy merosida estetik tarbiya sohasiga tegishli masalalar ulug'lar e'tiboridan chetda qolmagan, hatto, jahon ilmiy jamoatchiligining e'tirofiga sazovor bo'lgan ajdodlarimiz nafosat tarbiyasiga bag'ishlab maxsus asarlar yozgan. Jumladan, "Musiqqa haqida katta kitob" (Abu Nasr al-Forobiy), "She'r haqida risola" (Ibn Sino), "Majolis un-nafois" (Alisher Navoiy) va boshqa asarlar ta'sirida jahon estetik tafakkuri yangilandi va taraqqiy etdi.

Ho'sh, estetik tarbiya nima? Uning inson kamolotidagi ahamiyati nimadan iborat? Bugun jamiyat estetik tarbiyaga nechog'li ehtiyoj sezmoqda? Mulohazalarimiz ana shu savollarga oydinlik kiritishdan iborat bo'ladi.

Estetik tarbiya - inson ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutuvchi, muayyan shaxsning xoxish-istagi tufayli emas, balki jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatdir. Estetik tarbiya birdan paydo bo'lmaydi, o'z-o'zidan rivojlanmaydi: bu jarayon bilim, ko'nikma, tajriba asosida bosqichma-bosqich amalga oshadi. Sababi, inson dunyoga estetik qarashi boy, tuyg'ulari va didi tarbiyalangan xolda kelmaydi, aksincha, bu fazilatlar kuzatish, o'rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish yo'li bilan amalga oshadi.

"Estetik tarbiya" iborasini yana bir olmon faylasufi Fridrix Shiller o'zining "Estetik tarbiya to'g'risida maktablar" nomli asarida qo'lladi. Asarda Shiller ham dramaturg, ham shoir, ham faylasuf sifatida estetika masalalarini, ayniqsa estetik tarbiya bilan bog'liq o'z davri uchun yangi bo'lgan nazariyalarni ilgari surdi. Chunonchi u risolada "Tafakkur qiluvchi va his etuvchi insonni tarbiyalash uchun avvalo, uni estetik jihatdan tarbiyalash lozim" deydi.[2] Darhaqiqat, estetik tarbiya insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda uni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga ham o'rgatadi. Biroq, estetik tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Qolaversa, estetik tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning muayyan sohalarida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida amalga oshadi.

Faylasuf Abdulla Sher olmon shoiri, dramaturgi va faylasufi Fridrix Shillerning estetik tarbiya haqidagi mulohazalarini taxlil qilar ekan, uni "jamiyatni o'zgartirishni istaydi, lekin u inqilobiy o'zgarishlarga qarshi"- degan fikrni ta'kidlaydi. Shillerning nazdida inqilob, - deydi faylasuf - avvalo, axloqsizlik, u asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy tamoyillarni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydi; qolaversa, u nafosatga qarshi – inson tabiati uyg'unligini buzadi, narsa mavjudligi tabiiy tartibining muqaddasligini va go'zalligini parchalab yuboradi. Shu bois jamiyatni qayta qurishdan avval insonni qayta qurmoq lozim. Buni esa shaxsning uyg'un rivojlanishini go'zallik vositasidagi tarbiya orqali amalga oshirish mumkin. Shiller uchun go'zallik – hodisaga aylangan erkinlik.[3]

«Din bilan davlat, qonun bilan axloq bir-biridan yiroqlashgan, lazzat mehnatdan, maqsadga yetishish vositasi maqsaddan, g'ayrat mukofotdan uzilib qolgan hozirgi paytda, – deb

## FALSAFA

yozadi Shiller «Insonning estetik tarbiyasi xususida maktublar» asarida, – ulkan yaxlitlikning kichik bo‘lagiga abadiy bog‘langan insonning o‘zi ham bo‘lak shaklga kirib bormoqda; o‘zi harakatga keltirayotgan g‘ildirakning abadiyan bir xildagi shovqini ostida u endi tirikligining har tomonlama uyg‘unligini ta‘minlay olmaydi, u endi tabiatining insoniyatini ifodalash o‘rniga o‘z kasbi yoki ilmining surati bo‘lib qoladi... hayotbaxsh zehning o‘rnini o‘lik harfxo‘rlik egallaydi, sovuqqon xotira inson uchun daho va hissiyotdan ko‘ra yaxshiroq rahbarga aylanadi.[4]

Falsafa doktori F.G‘.Bozorova ham I.Kantning falsafiy-estetik qarashlari F.Shiller ijodiga kuchli ta‘sir qilganligini inkor etmagan holda muayyan ziddiyatlar ham borligini ta‘kidlaydi.[5] Xususan, Shiller Kant kabi go‘zallikni tushuntirishda qisqacha xulosa qiladi. «Go‘zallik – subyektivdir, masalan, yoqimlilikdan farqi go‘zallik manfaat va moyillikdan mahrum. ... Go‘zallik va ulug‘vorlik haqidagi muhokama – apriordir; go‘zallik, shuningdek axloqiy ezgulik timsolidir» kabi qarashlarida Kantning ta‘siri yaqqol kuzatiladi.[6]

## NATIJALAR

Estetik tarbiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli bo‘lib, u insoning yuksak estetik didga ega bo‘lishini taqazo etadi. Biroq, estetik tarbiya faqatgina go‘zallikni tushunish yoki baholashni o‘rgatish emas, balki, estetik jarayonni bevosita va bilvosita ishtirokchisi bo‘lishini shartlaydi. Estetik tarbiya jarayonida insonning estetik didi rivojlanadi va mukammallashadi. Zero, yuksak did egasi voqelikni go‘zallik orqali idrok etadi, go‘zallik yaratadi, go‘zallikka muhabbat qo‘yadi.

Estetik tarbiya barcha davrlarda ijtimoiy-ma‘naviy hayotning muhim qismi bo‘lgani sababli uning mohiyati va maqsadiga ham turlicha yondoshuvlar shakllandi. Xususan, estetik tarbiyaning maqsadini:

- a) badiiy tafakkurni yuksaltirish;
- b) ijodiy faollikni oshirish;
- v) go‘zallikni hunuklikdan farqlash;
- g) didni tarbiyalash;
- d) estetik hodisalarga munosabat ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq masalalar orqali izohlandi.

Bu kabi yondoshuvlar estetik tarbiyaning ko‘lami, tadqiqot doirasi va maqsadini ifodalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – estetik boy dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirish hamda avlodlararo estetik tajribani ommalashtirishdan iborat. Shu ma‘noda, estetik tarbiya - jamiyatda ma‘naviy muhit barqarorlikni ta‘minlash hamda badiiy tafakkur va yuksak didni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ma‘naviy jarayon hisoblanadi. Zotan, «Tabiat, deydi Arastu, - jonning hamma qismlarini birga bog‘laydi, shuning uchun tarbiyada biz unga rioya qilishimiz kerak va shaxsni har tomonlama, uyg‘un ruhda tarbiyalashimiz lozim. Shaxsni tarbiyalashning umumiy tizimida estetik tarbiya katta rol o‘ynaydi».[7]

Estetika ilmi tadqiqotchisi Abdulla Sherning fikriga ko‘ra, estetik tarbiya madaniyatning asosini tashkil etadi: “ ... estetik tarbiyani yo‘lga qo‘ymagan jamiyat hech qachon biron bir yutuqqa erisha olmaydi. ... Estetiklashgan shaxs jamiyatni estetiklestiradi, estetiklestirgan jamiyat esa, o‘z navbatida yangi darajadagi estetiklestirgan shaxsni yaratadi va shu tartibdagi o‘zaro ta‘sir millatning qadam-baqadam komillik darajasiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi”.[8]. Darhaqiqat, yuksak madaniyatli, zamonaviy iqtisodda, ilm-fanda, texnikada tutgan mavqening balandligi bu davlatdagi estetik daraja bilan paralell chiziqlardek nisbatga ega.

Estetik tarbiya avlodni go‘zallik haqidagi tuyg‘ularini, tabiatga bo‘lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma‘naviy rivojidadagi yangicha qarashlarini go‘zallik va ulug‘vorlik asosida tarbiyalash hamda san‘atning estetik mazmuni, mohiyati, maqsadi va undan zavqlanish yo‘llarini to‘laqonli o‘zlashtirishdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik madaniyat masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muallifi O.M.G‘aybullayev shaxs axloqiy tarbiyasini yuksak estetik madaniyat darajasiga, estetik tarbiyani yuksak axloqiylik darajasiga ko‘tarishda yo‘l qo‘yiladigan ayrim kamchiliklarning oldini olish kerakligini uqtiradi. Ayniqsa, oilaviy sharoitlar, bolalar tabiati va ta‘lim-tarbiya muassasalari har xil bo‘lgani sababli yoshlarning axloqiy tarbiyasi, estetik tafakkuri va estetik madaniyatga ehtiyojlari ham bir xil emas. Shuning uchun ayrim bolalarda estetik did yoshlikdan shakllanadi, ayrimlarida esa bu jarayon juda kech sodir bo‘ladi.[9]. Buning sababi, bolalarga beriladigan estetik tarbiyaning davri, talabi, saviyasi

va sifatiga bevosita bog'liq. Zero, xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql bejiz emas. Shu bois xalqimiz axloqiy tarbiyani estetik tarbiya bilan uyg'un holda amalga oshirgan.

Ilmiy muomalaga "etika" iborasi kirib kelganiga yigirma to'rt asrdan (yunon donishmandi Arastu tomonidan qo'llanilgan), "estetika" iborasiga uch yarim asrdan (nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten tomonidan qo'llanilgan) ortiq vaqt o'tdi. Bu davr ichida Etika va Estetika dunyo faniga aylandi, jahonda bu fanni rivojlantirish, uning ilmiy-nazariy muammolarini o'rganishga qaratilgan yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu bois estetikaning mavjudlik sharti haqida "Qayerdagi inson tafakkuri va tabiat hodisasi tufayli yaratilgan predmetlar olamini his etish yoki undan zavqlanish tuyg'usi kechar ekan o'sha yerda "estetik jarayon", "estetik hodisa" sodir bo'ladi", - degan fikr o'rinnidir.

### MUHOKAMA

"Turli davlatlar, turli siyosiy kuchlarning bir-biriga zid bo'lgan manfaatlari o'zaro to'qnash kelayotgan bugungi murakkab zamonda tarbiya muammolari qanday xal qilish mumkin?"- degan savolning tug'ilishi tabiiy. Chunki, "Estetik tarbiya yohud tuyg'ular tarbiyasi shu ma'noda tarbiyaning eng oliy ko'rinishiki, inson tug'ilganidan boshlab umrining so'nggi pallasigacha unga ehtiyoj sezib yashaydi, estetik tarbiya o'zining keng qamrovliligi bilan inson hayotiga san'at, adabiyot, matbuot, reklama, mehnat vositalari orqali ta'sir ko'rsatadi.[10] Mazkur ta'sirning to'g'ri yo'naltirilishi insonni - estetik dunyoqarashini boyitishga, tafakkurini isloh qilishga, badiiy-ijodiy fikrlashni shakllantirishga, bunyodkorlikka intilish tuyg'ularini o'stirishga hamda tinchlik, osoyishtalik, ogohlik tuyg'ularini hayotiy zaruriyatga aylantirib, jamiyat rivoji uchun mas'ullik hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" - deya ta'kidlagan edi.[11]

Ushbu ta'kid o'z navbatida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish ham o'z navbatida, estetik tafakkurni yangilash va boyitishni taqozo etadi. Ayniqsa, global tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda estetik tarbiyaning zamonaviy usullari, yo'llari va vositalarini yanada takomillashtirish dolzarb bo'lib bormoqda. Buni madaniy hamkorlikni kuchaytirish, san'atni rivojlantirish hamda ta'limni innovatsiyalar asosida tashkil etishga bo'layotgan e'tibordan ham anglash qiyin emas. Zero, insonni taraqqiy ettirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish va jamiyatni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar mavjud bo'lgan joyda hissiyot, tuyg'u va tasavvur takomilini taqazo etuvchi estetik tarbiyaga ehtiyoj mavjuddir.

### XULOSA

Inson ma'naviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog'liq jarayon. Bu jarayon ham estetik ham axloqiy tarbiyani taqazo etadi. Estetik tarbiya ham, axloqiy tarbiya ham ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma'naviy va jismoniy olamining uyg'un tarzda rivojlanishiga xissa qo'shadi. Chunonchi, estetik tarbiyada did, axloqiy tarbiyada fazilat ma'lum darajada shaxsning madaniyatlilik darajasini belgilaydi. Shu bois jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida estetik tarbiya:

- globallashtirish jarayonida inson tabiatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni optimallashtirish;
- ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go'zalligini har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlash;
- insonni hayotga bo'lgan ijodiy munosabatidagi g'ayriestetik hodisalarning oldini olish bilan izohlanadi.

Jamiyatimizda ma'naviy yuksalishning yangi bosqichi boshlangan hozirgi davrda etika va estetika fanlarini o'qitish, o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish axloqiy va estetik tafakkurni yangilash va boyitishni taqozo etadi. Endilikda, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini axloqiy va estetik madaniyatdan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maqsadga erishish uchun bo'lajak mutaxassis va davlat xizmatchisi avvalo Etika va Estetikaga oid bilimga ega bo'lishi zarur.

Davlat va jamoat arbobi Islom Karimov "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab

## FALSAFA

bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin", - deya keng jamoatchilikni ogoh etgan edi.[12] Shuningdek, mazkur asarda ko'rsatib o'tilgan tahdidlarning ko'rinishlari va ta'sir sohalari ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham bevosita daxldor.

Ma'lumki, ta'lim o'z oldiga barkamol shaxsni shakllantirishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Baramollilik esa estetikaning fundamental kategoriyasi bo'lib, aynan estetika fani uning ahamiyati, zaruriyati va mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchida olamni estetik idrok etish ko'nikmasini shakllantirish orqali ijtimoiylashish hamda hayotdagi estetik bo'shliqni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladi. YA'ni, birgina tabiatga estetik munosabatni to'g'ri yo'naltirish bilan o'quvchida ekologik mas'uliyat motivatsiyasini, o'simlik va hayvonot olamiga oqilona yondoshuvni paydo qilish mumkin. Buning uchun esa avvalo, ta'lim beruvchining o'zi yuksak estetik madaniyatga ega bo'lishi zarur.

Hozirgi davr o'tkazilgan kuzatish va tahlillar estetik tarbiya sohasida o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar borligi va ularni keng ko'lamda hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Birgina terrorizmning estetik tafakkurga ta'sir ko'rsatadigan mislsiz zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Shu bois terrorizm yoki terrorchini estetik tarbiyalanmaganlik oqibati deb baxolash mumkin. Chunki, terror har qanday go'zallik va ulug'vorlik, nafosat va nafislikka qarshi: o'ldirish va yo'q qilish maqsadga erishishning usuli. Qayerdagi, go'zallik va ulug'vorlikka qarshi jaholat mavjud ekan u estetika va estetik tarbiyaga ziddir. Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan turib aytgan ushbu so'zlari fikrimizni isbotlaydi: "Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir." [13]

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa-ijodiy uyi. 2014. –B. 327-328.
2. Шиллер Фридрих. Собрание сочинений в 7 т. Т.6. М., ГИХЛ, 1957.
3. Abdulla SHer. Estetika /Darslik. -Toshkent: O'zbekiston, 2014, -267 b.
4. Шиллер Ф. Собрание сочинений в 7 т. т.6. М., ГИКЛ, 1957. С. 265-266,
5. Bozarova F.G'. Immanuel Kant estetikasida go'zallik va ulug'vorlik kategoriyalarining transformatsiyasi. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent: O'zMU, 2018. 10-b.
6. Шиллер И.Х.Ф. Собр. Соч. в 2 т. - Т. 7. Москва, 1998. – 97 б.
7. Farb falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2004.
8. Abdulla SHer. Estetika. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston, 2015.
9. G'aybullayev O.M. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2011.
10. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. –Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2020.
12. Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi so'zlagan nutqi. –Toshkent, O'zbekiston, 2017.